

**JAMOAVIY TARBIYAVIY ISH, ULARNING TURLARI, TAYYORGARLIK  
KO'RISH VA O'TKAZISH ALGORITIMI. TARBIYAVIY ISHLARNI TURLI  
TAYYORGALIK KO'RGAN HOLDA, JAMOVIIY ALGARITIM O'TKAZISH.**

**Husanova Buvhadicha Alisher qizi**

*Jizzax davlat Pedagogika universiteti*

**Qurbanov Eldor Nuriddin o'g'li**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola hayotimizda muhim ro'l o'yno'vchi tarbiyaviy ishlarni shuningdek unga qay tarzda yondashuvni yoritib beradi, shuningdek tarbiyaviy ishlarni hozirgi kunda zamon talabiga moslashilgan holatda unga kerakli bo'lgan usullarni va bu mazvu borasida fikr-mulohazalar keltirilgan.*

**Kalitso'zlar:** *Ta'lim, tarbiya, ma'naviy tarbiya, intellektual, qobilyat, metod, jamoviy ish, jamoa algaritimi, iste'dod.*

**Kirish:** Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqda "Farzandlarimizning iste'dod va qobilyati, ezgu intilishlarni to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo'lib qoladi".. Shu maqsadda biz "Uzliklsiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" doirasida umumta'lim maktablarda va boshqa o'quv ta'lim dargohlarda birinchi marta "Tarbiya " ning ustuvorligiga ulkan vazifalar qo'ydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar:**


Yosh avlodga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu joyda yoshlarimiz ijtimoiy jamiyat va ilmiy texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan mukammal ma'lumotlarni oladilar. Maktab yoshlarining dunyoqarashlariga poydevor hamda g'oyaviy

e'tiqodlari uchun negiz yaratadi, ularning irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxt-

saodati yo'lida sidqi dildan mehnat qilishga taayyorlaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020 yil 23.09)

ta'lim tizimining buguni va kelajagiga umid bilan qarashga undaydi. Hozirgi zamon maktabi tubdan yangilanmoqda.





O'quvchilarga tarbiya berish, ularga ta'lim berish bilan mustahkam va yaxlit birlikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, shakl hamda uslublari bor. O'quv tarbiyaviy jarayon uzviyligi maktab oldiga qo'yilgan ehtimol muhim pedagogic qoidalardan biri hisoblanadi, shuning uchun ham sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'langandir.

Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarda asosiy vazifalari bo'lmish bilim olishga ishtiyoq uyg'otish, qobiliyati va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratishdan maktabni muvaffaqiyatli tugatish, kasb-korga intilish hissin

tarbiyalashdan iboratdir. Yoshlarning kundalik ehtiyojlari, intilishlari, talab va qiziqishlarini faqat dars jarayoni bilan qondirib bo'lmaydi. Sinfdan va maktabdan

tashqari mashg'ulotlar o'quvchilar faoliyatining barcha qirralarini qamrab olmog'i

lozim. Har bir o'quvchi bilan yakkama-yakka ishlash, uni ijtimoiy-ruhiy jihatdan o'rganish sinf faoliyatiga yangicha mazmun olib kiradi. Tarbiya deganda shakllanayotgan shaxsda shaxsiy, axloqiy sifatlarni

shakllantirishni tushunamiz. Tarbiya, ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgan jarayondir. Tarbiyaning birligi avvalo, ularning maqsadining umumiyligidadir.

Bir butun pedagogik jarayonda ta'lim doimo tarbiyaviy vazifalarni, tarbiya esa hayotni bilish,


unga tayyorlanishda mas'uliyatli vazifani bajaradi.

Tarbiyaning vazifalari ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarni bilimlar bilan Uning ta'limda qanday farqli tomonlari mavjud? "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanining predmeti kasb-hunar maktablari, akademik litseylarda ta'lim-tarbiya oladigan o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga oid nazariy

bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir qurollantirish bo'lsa, tarbiya yoshlarning jamiyatimizning g'onunlariga javob bera oladigan e'tiqodini axloqiy tushuncha va ko'nikmalarini, ehtiyoj va intilishlarini tarkib toptirishda muhimdir.

Abdulla Avloniyniing «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham bir biridan ayrilmaydigan, birining biriga bog'langan kabitur» deb ta'kidlashi bejiz emas. Ma'lum bo'ladiki, ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajratish mumkin emas. Shu bois, hozirgi kun pedagogikasining asosiy vazifasi bilim berib, tarbiyalash tamoyiliga ko'ra tarbiyalab, bilim berish bo'lmog'i lozim.





Bu fanning maqsadi, ta'lim muassasasilari o'quvchilariga ko'rsatish mahoratiga ega bo'lgan, bunda boy qadriyatlarimizdan keng va zarur metodlarini qodir bo'lgan pedagoglarni tayyorlashdan iboratdir. Tarbiya maxsus faoliyat sifatida anglab olingan maqsadning mavjudligi bilan ta'sir ko'rsatishning maxsus ishlab chiqilgan va asosiy berilgan vositalari shakllari metodlarini qo'llanishi bilan ajralib turgan.

Umumta'lim maktablari shaxsini davr talabiga javob bera oladigan darajada tarkib toptirishga erishish imkonini beradigan, biror bir salbiy jihatning oldini oladigan tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda tashkil etish asoslarini ishlab chiqish kabilar tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining muhim maqsadi va vazifalari sanaladi.

### **Muhokama va natijalar:**

Shuningdek, Sharq mutafakkirlari jamoaning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roliga alohida e'tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o'zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas (<http://kompy.info/yangilik-kiritish-zamonaviylashtirish--pedagogik-konsepsiya-mo.html>), (<http://kompy.info/yangilik-kiritish-zamonaviylashtirish--pedagogik-konsepsiya-mo.html>) balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta'sir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bo'lgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni ta'kidlaydi. Bolani yomon ta'sirlardan saqlash zarurligini uqtiradi. Shuningdek, alloma o'qitish samaradorligini ta'minlashda bolalarga jamoa asosida bilimlarni berish maqsadga muvofiqiligini ta'kidlaydi. Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, inson boshqalar bilan munosabatda bo'lish, ularning yordami va qo'llab-quvvatlashlarini his etish ehtiyojiga ega. Ana shu ehtiyojni qondirish yo'lidagi amaliy harakatlar insonni kamolotga yetakla,deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniy esa shaxsning rivojlanishida o'zaro yordam, hamkorlik, odamlarga nisbatan xayrixohlik uning ijtimoiy muhitdagi roli va o'rnini belgilab beradi.

**Xulosa:** Demak jamoaviy tarbiya har bir guruh o'quvchi hamda uning mohiyatini tushungan inson o'ziga kerakli bilim va malakalrni bilishi zarur.Ta'limda tarbiyaning ahamiyati juda katta ro'l o'ynaydi ayniqsa pedagogika sohasida bu juda zarur.Tarbuya Payg'ambarimizdan qolgan sunnatlarda ham ma'lum,u zotni davomchis sohabiyalar va unga ergashgan islom ahlidir.Jamoaviy tarbiyani biz eng ko'p uchratadigan joyimiz bu masjiddadir va Imomga ergashilgan holatda tarbiyaning yirik namunasi hisoblanadi.Tarbiyani biz birinchi bo'lib o'z uyimizdan olamiz.Ota ona bergan tarbiya butun umrga yetadi va tarbiyani ta'lim dargohlarida va xalq orasida mustahkamlaymiz.





## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Djurayeva S.N. Turdiyeva N.S.

Baxronova A.J.

TARBIYAVIY ISHLAR

METODIKASI

2. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA

PEDAGOGIK KONSILIUMNING O'RNI

Автор: M Sattorova • 2021

3. O.MUSURMONOVA, N.ISAKULOVA,

M.JUMANIYOZOVA, A.JUMAYEV

UMUMIY

PEDAGOGIKA

I QISM

